

O'RTA ASR INGLIZ RITSARLIK ROMANLARIDA ANGLIYA MAVZUSI

Durdona Boychayeva

Namangan Davlat chet tillar institute, tadqiqotchi

dboychayeva@mail.ru

tel:(998) 99-917-74-45

<https://doi.org/10.5281/zenodo.13925764>

Annotatsiya. O'rta asr ingliz romanlarining asosiy materiallari ritsarlarning sarguzashtlaridan tashkil topgan. Bu romanlarning deyarli ko'pi nazmda bo'lib, prozaik romanlar keyinchalik paydo bo'lgan. Ushbu maqolada ritsarlik romanlarida Angliya mavzusi haqida ma'lumotlar keltiriladi. Quyida 4ta tur Fransiya mavzusi, Britaniya mavzusi, Rim hamda Angliya mavzusiga turkumlanuvchi romanlar mavjud bo'lib, quyida Angliya mavzusi haqida batafsil ma'lumotlar tasnifi keltirilgan.

Kalit so'zlar: tematik, ritsarlik, realism, sarguzasht, Fransiya mavzusi, Britaniya mavzusi, Rim mavzusi, Angliya mavzusi, Troya, personaj.

THE ENGLAND THEME IN MEDIEVAL ENGLISH NOVELS OF CHIVALRY

Abstract. The main material of medieval English novels is the adventures of knights. Most of these novels were in verse, and prose novels appeared later. This article provides information about the thematic classification of chivalric novels. These novels of chivalry are characterized by the lack of unity of action and insufficient development of characters. Below is a classification of novels divided into 4 types: matter of French, matter of British , matter of Rome, matter of England.

Keywords: theme, chivalry, realism, adventure, matter of French, matter of British , matter of Rome, matter of England, Troy, character.

АНГЛИЯ ТЕМА В СРЕДНЕВЕКОВЫХ АНГЛИЙСКИХ РОМАНАХ О РЫЦАРСТВЕ

Аннотация. Основной материал средневековых английских романов — приключения рыцарей. Большинство этих романов были в стихах, позднее появились романы в прозе. В данной статье представлена информация о тематической классификации рыцарских романов. Эти рыцарские романы характеризуются отсутствием единства действия и недостаточной проработкой характеров. Ниже представлена классификация романов, разделенная на 4 типа: французская тема, британская тема, римская тема и английская тема.

Ключевые слова: тема, рыцарство, реализм, приключение, французская тема, британская тема, римская тема, английская тема, Троя, персонаж.

O'rta asr ingliz ritsarlik romanlari mavzu jihatdan uchta kategoriya bo'linadi:

1. Fransiya mavzusi;
2. Britaniya mavzusi;
3. Rim mavzusi.

Bu bo'linish XII asr oxirida Jan Bodel tomonidan taklif etilgan. Jan Bodel tomonidan tasniflangan va uch guruhga bo'lingan ritsarlik romanlari garchi Angliyada yozilgan bo'lsa-da, asosan Yevropa mamlakatlari hayotidan olingen tarixiy shaxs va voqealar haqida hikoya qiladi.

Biroq Jan Bodel tilga olmagan yana bir muhim mavzu mayjudki, bu "Angliya mavzusi" deb nomlangan romanlar guruhidir. Bu guruhga kiruvchi ritsarlik romanlari ingliz tarixining german manbalari, xususan, Offa, Earl Goduin va Yovvoyi Edrik kabi ingliz qahramonlarini ulug'lovchi xalq og'zaki afsonalarining ma'lum bir qismlari bilan bog'liq. "Qirol Xorn" bu guruhga mansub eng qadimgi roman bo'lib, bu ritsarlik romani ingliz romannavislari tomonidan fransuz saroy elementlarini rad etgan holda bitilgan asarlarning yorqin namunasidir. "Qirol Xorn"da ishqiy elementlardan ko'ra sarguzashtlarga ko'proq urg'u berilgan. Asarda Sarasen butparastlarning bosqinchiligi tufayli o'z shohligidan voz kechib, mamlakatdan bosh olib ketishga majbur bo'lgan shahzodaning boshdan kechirgan sarguzashtlari haqida hikoya qilinadi. Surgun paytida u malika Rimenzildni sevib qoladi, do'sti xiyonat qiladi, Irlandiyaga boradi va Irlandiya qiroli tomonida kurashadi, o'z sevgilisini boshqa da'vegarga turmushga chiqishdan qutqarish uchun o'z vaqtida qaytib keladi, nihoyat taxtini qaytarib oladi va uylanadi.

Hikoya oddiy, ammo jonli va jozibali tarzda bayon etilgan bo'lib, o'z zamonidagi ingliz adabiyotining o'ziga xos uslubi va mavzularini o'zida mujassam etgan.

Ushbu guruhga tegishli yana bir diqqatga sazovor roman bu "Daniyalik Xavelok" romani bo'lib, bu asar ham jonli qahramonlar va qiziqarli sarguzashtlarga boy. Mazkur ritsarlik romanining birinchi qismida ota-onasidan ayrilgan yosh malika Goldboro taqdiri tasvirlanadi. Malika Dover qal'asida Godrich ismli regent tomonidan tutqunda saqlanadi. Godrich Goldboroning otasiga malikani eng kuchli va go'zal yigitga turmushga beraman deb va'da bergen. Asarning ikkinchi qismida esa Xavelok namoyon bo'ladi, u ham Godard ismli maslahatchisining xiyonatiga uchraydi. Godard Xavelokning otasi vafot etgandan so'ng, baliqchi Grimga Xavelokni suvga cho'ktirib o'ldirishga buyruq beradi. Biroq Xavelockning og'zidan taralgan yorug'likni va yelkasidagi porloq belgini ko'rib, Grim uning qirollik vorisi ekanligini tushunadi. Shuning uchun u o'z oilasi bilan birga qochib, Grimsbi deb nomlangan joyda yashab qoladi va baliq ovlash bilan shug'ullanadi. Ocharchilik davrida Xavelock Grimga ro'zg'orda yordam berish uchun Linkoln

grafining oshpaziga yordamchi bo‘lib ishga kiradi. Shu davrda Xavelock bir musobaqada qatnashib, o’n ikki fut uzoqlikka toshni irg‘itib, bosh sovrinni qo'lga kiritadi. Buni guvohi bo‘lgan Godrich Goldboroni Xavelokka turmushga chiqishga majbur qiladi. Oxir-oqibat Goldboro Xavelokning aslida qiroq o'g'li ekanligini bilib qoladi. Asar so‘ngida Xavelok o'z qirolligini qaytarib oladi va uzoq umr ko'radi.

Yuqorida nomlari tilga olingan har ikki ritsarlik romanida ham bosh qahramon oddiy odamlar orasidam oddiy turmush tarzini kechirib, oxir-oqibat o‘z maqsadiga erishgan shaxs sifatida tasvirlangan. Ushbu romanlar saroy hashamatini emas, balki ingliz o'rta sinfining hayot tarsi va ruhini aks ettiradi.

“Angliya mavzusi”dagi ingliz romanlari orasida yana ikkita hikoya – “Uorviklik Gay” hamda “Xemptonlik Bevis”lar ham juda mashhurdir. Birinchisi Uorvik grafining qizi Felisni hayratda qoldirishni maqsad qilgan Gayning sarguzashtlari haqida bo‘lib, ular turmush qurishgach, kofirlarga qarshi buyuk maqsad yo‘lida kurashadilar. Guy o ‘zida xarakterida mol-mulk va boylikdan voz kechish ruhini shakllantiradi va kamtarona hayot kechira boshlaydi.

“Xemptonlik Bevis” romani esa Bevisning onasi qanday qilib erining qotilligini rejalashtirgani, qotilga turmushga chiqishi, Bevisning sotilishi va Saracen qiroli Erminning xizmatiga olinishi haqida hikoya qiladi. Erminning qizi Josian Bevisga oshiq bo‘lib qoladi va unga uylanmoqchi bo‘lgan sarasenlik da’vogarlarga qarshi hamda o‘zini nasroniy ritsar sifatida saqlab qolishi uchun kurashadi. Asardagi epizodlar ba’zan tushunarsiz bo ‘lib, deyarli bir xil shablonli motivlardan foydalanilgan bo‘lsa-da, roman davomida o‘quvchi e’tiborini tortib turuvchi shov-shuvli voqealar kitobxonni alohida bir hayajon bilan o ‘ziga jalb qila oladi.

Yana bir ingliz ritsarlik romani – “Sheryurak Richard” haqiqiy ingliz qahramoni Richard I haqidagi romantik hikoyaning yorqin misolidir. Uning sarguzashtlari, Uchinchi Salib yurishidagi roli va buyuk shaxsiyati ingliz milliy iftixor manbalaridan biri bo‘lgan. Shuni alohida ta’kidlash joizki, shoir tarixiy ma'lumotlarni o'zgartirgan va afsonaviy elementlarni qo'shgan. Ammo asarda o‘z aksini topgan kuchli ingliz qarashlari va fransuz qiroliga bo‘lgan nafrat mazkur ritsarlik romanining inglizlarga tegishli ekanini anglatadi.

XIV asrga tegishli bo‘lgan “Atelston” romani, garchi 812 satrdan iborat nisbatan qisqa roman esada, zamonaviy muharrir uchun unchalik muammo tug'dirmaydigandek tuyuladi, chunki u faqat bitta qo‘lyozmadagina saqlanib qolgan, ya’ni turli savollar keltirib chiqaruvchi boshqa manbalari yo‘q. biroq aslida bunday emas. Olimlar, masalan, asarda X asrdan XIV asr oxirigacha bo‘lgan voqealarga, jumladan, Genrix II va Tomas Beket o'rtasidagi kurashga va baronlarning Richard II ga qarshi kurashiga ishoralar borligini aytishadi. Yana boshqalar 1102 yilda simoniyada

aybdor deb topilgan tarixiy Vaymundga yoki qirol Ioan hukmronligi davrida sodir bo'lgan voqealarga ishora qiladilar. Romanning manbasi ham bahstalab va munozarali. A.M.Trauns mahalliy rang-barangligi, joy nomlari va ingliz urf-odatlari va qonunlari tafsilotlariga qaramay, arxiv soyasida frantsuzcha asl nusxa yashiringanligini bir necha bor ta'kidlagan. Laura Hibbard Lumisning ta'kidlashicha, romanning kelib chiqishi qirolicha Emma afsonasi, Eduard Konfessorning onasi hikoyasiga borib taqaladi.¹ Ushbu masalalar bo'yicha ilmiy nuqtai nazarlarning xilma-xilligi bu oddiy ko'rindigan romanning hayratlanarli darajada murakkab intertekstualligi va talqin qilish imkoniyatlaridan dalolat beradi.

Donald Sands o'z nashriga kirish so'zida Athelstonning obro'si juda baland ekanligiga ishora qiladi. Uning ta'kidlashicha, she'r haqiqatan ham birinchi o'qishda juda ta'sirli, ammo qanchalik diqqat bilan qarasangiz, shunchalik kam ko'rasiz. Sands asarda qahramonlarning nozik portretlari yo'qligini ta'kidlaganida, albatta, haq. Zero asardagi qirolning ishonuvchanligi, arxiyepiskopning qat'iyatliligi va xoinning yovuzligi - bularning barchasi oddiy ertaklardagi yaxshilik va yomonlik o'rtasidagi qarama-qarshilikni anglatuvchi xarakter qirralarini ko'rsatadi, xolos. Diter Meyl ham roman qahramonlar ham esda qolarli, ham individualdir, deganida yanglishmagandi.²

"Atelston" romani ham tarixni o'zgartiradi va cherkov qo'lida qirolning tahqirlangani sababli ruhoni yoki cherkov arboblari ta'sirida bo'lganligi aks ettirilgan.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, yuqorida nomlari zikr etilgan 6 ta ingliz ritsarlik romanlari o'rta asrlar ingliz jamiyatidagi siyosiy-ijtimoiy masalalarga bag'ishlanib, ularda Angliyadagi tarixiy shaxslar va voqealar haqida bayon etilgan.

¹ Laura Hibbard Loomis, Mediæval Romance in England: A Study of the Sources and Analogues of the Non-Cycle Metrical Romances (New York: Burt Franklin, 1960), pp. 143-46.

² Mehl Dieter. The Middle English Romances of the Thirteenth and Fourteenth Centuries (London: Routledge and Kegan Paul, 1968), p. 148.